


Amir Temur tavalludining 685 yilligi munosabati bilan xalqaro anjuman o'tkazildi

Fanlar akademiyasi Tarix institutida onlayn shaklda xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanni Tarix instituti direktori Azamat Zijo ochib berdi va Amir Temur shaxsiyatiga doir qimmatli fikrlarni bildirdi. Xususan, Amir Temur ilmiy merosi va tarixini xamjihatlikda, birgalashib o'rghanish lozimligi alohida ta'kidlab o'tdi.



Anjumanda xorijdan, jumladan, Turkiyadan professor Ahmet Shimshirgil va professor Hayrunniso Alan, Ozarbayjondan akademik Yoqub Mahmudov, Tojikistondan dotsent Bo'ston Tursunov va tarix fanlari nomzodi Jamoliddin Abduhakimovlar ishtirok etishdi.

Unda Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi, Amir Temur sultanati, harbiy jang san'ati va uning jahonda o'rganilishi, Temuriylar davriga oid vaqf hujjatlari kabi bir-biridan qiziqarli ma'ruzalar tinglandi.